

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 3 (11)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймахаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Али Назарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймухамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Abdullaev Elbek Abduqahhor o'g'li AMIR TEMURNING 1393 YILGI ERON YURISHI	5
2. Akbarov Ravshan Xalimovich TURKISTONDA JADID MAKTABLARI TARMOG'INING VUJUDGA KELISHIDAGI SHART-SHAROITLAR	13
3. Бобожонов Шавкатжон Улуғбекович “ҚОЗОН ТЎЛДИ” – НАВРЎЗНИНГ БОЎИЙ МАРОСИМИ	21
4. Дусчанов Расулжон Рахимбаевич ЎЗБЕКИСТОН ССР МОЛИЯ ХАЛҚ КОМИССАРЛИГИ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ	34
5. Israilov Nodir Rahimjonovich LYUDOVIK XIV NI HAYRATLANTIRGAN SIYMO	41
6. Karimova Nazokat Voxidjon qizi ANTIK DAVR FARG'ONA VODIYSIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI TARAQQIY ETISHI	47
7. Maxmudova Muazzamxon Sultonmahmudovna AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI KUTUBXONALARI	53
8. Mo'minov Mironshoh Abdualim o'g'li THE IMPORTANCE OF SUSTAINABILITY: A PATH TO A GREEN FUTURE	61
9. Mubinov Muhammadali Akobirovich BUXORO AMIRLIGI TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLARNING YEVROPA MAMLAKATLARIDA OMMALASHUVI (INGLIZZABON MUALLIFLAR ASARLARI ASOSIDA)	70
10. Нишонов Абдурашид Абдурасулович СЕВИНЧХОЖАХОН ХОНАДОНИ ТАРИХИ МЕМУАР АСАРЛАРДА ЁРИТИЛИШИ	84
11. Nishonov Abdurashid Abdurasulovich KELDIMUHAMMAD SULTON HUKMRONLIGI DAVRIDA FARG'ONA VODIYSIDAGI SIYOSIY JARAYONLAR	90
12. Ravshanov O'ktamali Rustam o'g'li BUXORO AMIRLIGI VA ERON MUNOSABATLARI TARIXIDAN	97
13. Raxmanova Odinaxon Ravshanbekovna., Odilov Muhammadqodir Olimjon o'g'li IBN AN-NADIMNING AL-FIHRIST ASARI TARIXIY MANBA SIFATIDA	107
14. Said Irandoust ESTABLISHING WORLD-CLASS RESEARCH UNIVERSITIES	114

Abdullaev E. A.
Tayanch doktorant (PhD)
Farg'ona davlat universiteti
elbekabdullayev87@gmail.com

AMIR TEMURNING 1393 YILGI ERON YURISHI

ANNOTASIYA

Maqolada tarixiy manbalar va adabiyotlar tahlili asosida Amir Temurning 1393 yilgi Eronga, Muzaffariylar davlati ustiga amalga oshirgan yurishi yoritilgan.

Kalit soʻzlar: Markaziy Eron, Muzaffariylar davlati, uch yillik yurish, besh yillik yurish, Shoh Shujo, Sulton Zaynulobidin, Shoh Mansur, Abu Ishoq, Sulton Ahmad, Isfahon, Sheroz, Fors.

KIRISH

Amir Temur Movaraunnaxrda markazlashgan davlat barpo etgandan keyin, oʻz davlati hududlarini kengaytirish, mamlakat xavfsizligini ta'minlash, savdo yoʻllari ustidan nazoratni qoʻlga kiritish, barpo etgan davlatining iqtisodiy ahvolini yaxshilash, siyosiy mavqeini oshirish, yoʻllarni qaroqchilardan tozalash, Islom dinini himoya qilish va boshqa sabablar natijasida bir qator istilochilik yurishlarini amalga oshirdi.

Shular qatorida Eron va uning atroflariga amalga oshirgan yurishlarining ham oʻziga yarasha sabab va maqsadlari mavjud edi. Ushbu maqolada Amir Temurning 1393 yilda Eronga qilgan yurishini yoritishga harakat qilindi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Maqolada tarixiylik tamoyili, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tasniflash, muammoviy-xronologik kabi usullardan foydalangan holda tadqiqot uchun qoʻyilgan asosiy maqsad mohiyatini ochib berishga harakat qilindi.

Biz tadqiq etayotgan mavzuga oid ma'lumotlarni bir qator asarlarda oʻrganilganligini koʻrishimiz mumkin boʻladi, bulardan Dadaboev Hamidulla. Amir Temurning harbiy mahorati., Retveladze E.V., Alimova. D.A. Istoriya Uzbekistana Epoxa Amira Temura i Temuridov., Usmonov B. Oʻzbekiston tarixi. Amir Temur va Temuriylar davri siyosiy tarixi., Amir Temur jahon tarixida. mualliflar jamoasi: S.Saidqosimov (rahbar), G.Asanova, A.Ahmedov, B.Ahmedov va boshq., Amir Temur jahon tarixida. Mas'ul muharrir: H.Karomatov. mualliflar jamoasi: S.Saidqosimov (rahbar), A.Ahmedov, B.Ahmedov va boshq. Toʻldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri. kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Bu va boshqa asarlarda keltirib oʻtilgan ma'lumotlar umumiy boʻlib, ularda asosan Eron davlatini bosib olinishi bilan bogʻliq ba'zi fikrlar uchraydi. Ushbu kitoblarda keltirilgan ma'lumotlar manbalar bilan taqqoslangan holda tahlil qilindi.

1385-1387 yillarni oʻz ichiga olgan uch yillik yurish natijasida Shimoliy va Markaziy Eron, Ozarbayjonda Amir Temur hokimiyati oʻrnatildi. Shuningdek, Shirvon, Armaniston, Gruziya mamlakatlari ham Amir Temur hukmronligini tan olishga majbur boʻldilar. Lekin, bu mamlakatlarning aksariyati Amir Temur qoʻshinlari Xorazm, Oltin Oʻrda va Moʻgʻiliston hukmdorlarining ittifoqiga qarshi kurash olib borgan (1388-1391) yillarda oʻz mustaqilliklarini tiklab oldilar [10:191].

Amir Temur Toʻhtamishxonga qarshi 1391 yilgi Qunduzcha yurishdan gʻalaba bilan qaytib kelgach, yana bir bor Eronga borish va yakunlanmagan ishlarini nihoyasiga etkazishga, mamlakatni dushmanlardan tozalashga niyat qildi. Shu sababli turklarning maymun yiliga toʻgʻri keluvchi etti yuz toʻqson toʻrtinchi yil rajab oyining boshida (1392 yil 24 mayda) yoʻlga chiqdi[4:168].

Eron yurishini boshlanish sanasi borasida quyidagi ma'lumotni ham uchratishimiz mumkin. “Amir Temur yangidan kuch toʻplab, 1392 yil 7 iyunida Eronga “besh yillik yurishga” chiqadi” [7:55, 5:140, 6:143, 10:191].

Shaʼbon oyining boshida (1392 yil 24 iyunda) Buxoroga etib keldi[4:168]. Amir Temur xastalangani, kasalligiga qaramasdan yoʻlga chiqib Juyi Zar degan joygacha boradi. Shu erda tabiblar tomonidan uning kasalligi davolanadi. 1392 yil 7 iyulda kasallikdan sogʻayib, lashkarni tartibga keltirish bilan shugʻullanadi va 1392 yil 27 iyulda yana yoʻlni davom ettiradi[4:169, 7:55, 6:144, 10:192].

Shu yili qishni Mozondaronda oʻtkazadi. 1393 yilning 9 yanvarida yoʻlga chiqib, Domgʻon, Semnon, Ray, Shahriyor, Qazvin, Sultoniya erlaridan oʻtiladi. Ushbu hududlardan faqat Qazvin jang bilan qolganlari esa jangsiz Amir Temur davlati tarkibiga qaytarildi[10:193].

Shu erdan Mirzo Muhammad Sulton va Mirzo Pir Muhammadlar boshchiligidagi qoʻshinning mangloy qismi avval reja qilingandek Bagʻdodga emas Kermonshoh tomon yoʻlga chiqishi buyuriladi. Amir Temur Kurdistonda hokimiyatini mustahkamlamasdan avval Bogʻdodga yoʻlga chiqish xavfli degan xulosaga kelgan edi[10:193]. Kurdistonning ulugʻ amirlaridan Ibrohimshoh itoat izhor etib, Amir Temur hizmatiga kiradi.

Amir Temur 1393 yilning fevral oyi oxirlarida Burujardga etib keladi, u erdan bir necha kunda Hurramobod erlariga etib kelganda Malik Izziddin yuzma-yuz kela olmay qochib ketadi[4:174].

Shu joyga kelganda Bogʻdodga ketayotgan qoʻshin yoʻnalishini oʻzgartirib Shushtar tomonga yoʻlga chiqadi. Amirzoda Umarshayx oʻng qoʻl bilan yurib Huvayz yoʻlidan borishi buyuriladi. Amirzodaning kelayotganini eshitgan Shoh

Mansur tomonidan tayinlangan shahar hokimi Islom ismli shaxs shaharni va qal'ani tashlab qochib ketadi. Lekin amirzoda uni tutishga muvaffaq bo'ladi. Amir Temurning o'zi Dizfulga keladi. U erdan yo'lga chiqib Shushtarga etib keladi. Amirzoda Sulton Muhammad va amirzoda Pir Muhammadlar Darbanddan yo'lga chiqib qo'shinga kelib qo'shiladi[4:175].

Amir Temur bu erdan Sheroz tomonga yo'lga chiqadi va amirzoda Umarshayhga etib borishini tayin etib, odam yuboradi. Umarshayh Shushtarga Xoja Ma'sud Sabzavoriyni hokim qilib tayinlab, Sheroz tomonga yo'lga chiqadi.

Amir Temur Sherozga yo'lga chiqqach Obi Sho'r, Romiz, Rudi Manqut, Chovshon, Arg'uvon, Obi Shirin, Bidak, Julohon, Obi Julohon mavzelari orqali yurib 1393 yil 24 martda Qal'ayi Safidga etib keldi. Ushbu qal'a bir baland tepalik ustiga qurilgan bo'lib, chiqish qiyin, tor yo'laklariga bir necha kishi turib olsa katta qo'shinni to'htatib tura olardi. Ushbu qal'ani besh yil avval Shoh Mansur qo'lga olib Saodat ismli ishonchli odamini boshqaruvga qo'ygan edi. Qal'a bir oz qiyinchilik bilan lekin qisqa fursatda egallandi. Ushbu qal'ada Shoh Mansur tomonidan ko'ziga mil tortirilgan Shoh Zaynulobidin bandilikda saqlanar edi. Uni ozod etishib, Amir Temur huzuriga olib kelishdi. Amir Temur inoyati bilan Zaynulobidinining ko'nglini ko'tardi, "Albatta dushmanlardan sening o'chingni olaman, ularning yomon fe'li jazosini o'zlariga qaytaraman", dedi[4:176]. Qalaga Malik Muhammadni (qal'ani malik Shamsiddin Muhammad ibn malik Izziddin Hirotrudiy G'uriyga berib yubordi[1:151]) qutvol etib tayinlab, Navbandgon mavzesiga bordilar. U erdan yo'lga chiqib Bavon darasidan o'tishdi, keyin dashtu sahroga etdirdi, so'ng Rabot mavzesiga, so'ngra Guyim qal'asiga etib borishdi[4:177].

Bu erdan yana yo'lni davom ettirishib, bir oz yurganlarida dushmanning kichikroq qismini pistirmadan turib mag'lub etishadi. Qo'lga tushganlardan olingan ma'lumotlarga asoslanib yo'nalishni davom ettirishadi. Yo'lni davom ettirishayotgan vaqtda Muzaffariylarning asosiy qo'shiniga duch kelishadi. Ma'lumotlarga ko'ra Shoh Mansur boshchiligida to'rt ming nafar yaxshi qurollangan va saralangan otliq askarlardan iborat qo'shin bor edi[4:177].

Ushbu otliq askarlarga jangovorlik nuqtai nazaridan ancha yuqori baho beriladi. "Ayni paytda Shoh Mansur qariyb to'rt ming nafar mukammal qurollangan va qoyaday haybatli otliqlar bilan - nomus talablik yuzasidan ularning har birini bir iqlimdan tanlab olgan edi"[3:153].

Shoh Mansur qo'shinini jangavor salohiyati to'g'risida yana quyidagi Amir Temurning o'ttiz ming kishilik qo'shiniga hujum qilib, ularni ikkiga ajratib yuboradi va jangni davom ettirib hukmdor turgan tepalikkacha etib kelishga erishadi. Shoh Mansurning o'zi Amir Temurga qilich bilan zarba berganligi, lekin hukmdorga ziyon etkaza olmaganligi, hujum qaytarilib, Shoh Mansur qo'shini

mag'lub etilganligi, uning o'zi esa shu jangda halok bo'lganligini ko'rishimiz mumkin[4:178].

Amir Temur bilan Shoh Mansurning ushbu jangda bir birlari bilan yuzma-yuz kelishi voqeasini bir necha xil bayonini ko'rishimiz mumkin. Ulardan birida voqea quyidagicha tasvirlanadi. Shoh Mansur jangda Amir Temurga qilichini qaratdi, lekin Odil axtochi uni o'z gavdasi bilan to'sib, qilichini qaytardi[1:151].

Shoh Mansur va uning qo'shini bu jangda katta muammo bo'lganligini, Amir Temur hayotiga zarar etkazish darajasiga etib borganligini, o'ttiz ming kishilik qo'shinni ikkiga ajratib tashlagani va sarosimaga sola olganligidan ham ularga baho bersa bo'ladi.

Amir Temur o'ta tahlikali onlarda ham sarosimaga tushmas, hissiyotga berilmas, metinday mustahkam irodasi ikkilanishga, qat'iyatsizlik ko'rsatishga aslo yo'l qo'ymas edi. Biror marta ham mag'lubiyat alamini totib ko'rmagan muzaffar qo'shin oliy bosh qo'mondonining har qanday og'ir va chigal vaziyatdan ham tadbirkorlik bilan chiqib ketishiga butun vujudi bilan ishonar, shuning uchun g'anim bilan faqat g'alabani ko'zlagan holda jon-jahdi bilan savash qilar edi[8:25]. Ushbu fikrlarimizni Shoh Mansur qo'shini bilan bo'lgan jang tasdiqlashi mumkin.

Otliqlar guruhidan iborat razvedka – qarovul Amir Temurga Shoh Mansurning oz kishiga bosh bo'lib qochib ketayotganligi haqida habar keltiradi. Shu sababli qo'shining zarbdor qismini Shushtar atrofida qoldirib, kichik bir askariy guruh bilan Sheroz tomon yo'lga chiqadi. G'anim qorovullari otrayad-favj kelayotganligi ko'rgach, Shoh Mansurga ma'lum qiladi. Amir Temur dushmanni qochish yo'lini tanlaydi degan hayol bilan bamaylixotir ot o'ynatib kelayotgan edi. Sherozga uch farsang qolganda dushmanning boshdan - oyoq temir sovutlarga burkangan tahminan uch ming otliq nayzadorlarining jangavor tartib - yasoliga duch keladi[8:26]. Bu ma'lumotda ham Shoh Mansur qo'shinlarini mukammal zirhlanganligi va qurollanganligini ko'rishimiz mumkin, faqat yuqoridagi ma'lumotlarimizdan farqli o'laroq qo'shin soni uch ming sifatida ko'rsatilmoqda.

Shoh Mansur engilib jangda halok bo'lgandan keyin Amir Temur Sherozga qarab bordi va shahar egallanib, soliqqa tortildi, Shoh Mansurning mol mulki amirlar va askalarga taqsimlab berildi[4:179].

Amirzoda Muhammad Sultonni Isfahon tomonga jo'natildi. Umarshayx o'zining qo'shini tartibga keltirib, qolgan dushman qo'shinini yo'q qilish uchun yo'lga chiqib, Oq Qo'rg'on mavzesidan o'tib Kazerun viloyatigacha boradi. Bu erdan Amir Temur topshirig'iga ko'ra qaytib keldi. Fors viloyatini boshqarish Umarshayx mirzo zimmasiga yuklatildi[4:179].

Muzaffariylar sulolasi vakillarining har biri bittadan viloyatga o'rnatib olib, bu erda o'zini hukmdor deb e'lon qilib, bir birlari bilan toju taxt uchun kurashib yotgandi. Kimning qo'li baland kelsa mag'lub bo'lganni qatl etar, ko'ziga mil

tortirar va jabr-zulm ko'rsatardi. Bu o'zaro urushlardan halq ham aziyat chekardi. Shu erda halq vakillari Amir Temur oldiga kelishib, Muzaffariylar ustidan arz qilishib "Agar Amir Sohibqiron yana bir bor mamlakat jilovini ularning qo'liga bersalar, ularning zo'ravonlik va jabru sitam qo'lini halq ustidan daf qilmasalar, butun aholi xorlik maydonida oyoq ostida qolib halok bo'lg'usidir"[4:180].

Bu erda 1387 yilgi Eron yurishida 1388 yilning fevralida Movaraunnahrdan To'htamishxoning bostirib kelganligi to'g'risidagi habarni eshitgach, Forsni Muzaffariylar o'rtasida taqsimlab qaytib ketganligi nazarda tutilgandi[9:67].

1393 yil 7 aprel hukmga muvofiq Muzaffariylar sulolasining barcha vakillari tutib kelib, asirga olindi. Bu mulklarga xokimi mutloq etib Umarshayx Mirzo tayinlandi[9:67]. 1393 yilning 18 aprelida Amir Temur Sherozdan Isfahonga qarab yo'lga chiqdi. 1393 yilning 25 aprel kuni Muzaffariylar xonadonining katta-kichigi qatl etildi[4:180].

Muzaffariylar sulolasi vakillarining qatl etilishi borasida yana quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tishimiz mumkin. Rajab oyining sakkizinchi kuni seshanbada (1393 yil., 20 may) Muzaffariylar sulolasidan podshohlar o'sha tilga olingan Yazd hukmdori shoh Mansurning inisi – shoh Yahyo ibn shoh Sharafiddin Muzaffarning ikki o'g'li – sulton Muhammad va sulton Jahongir bilan, Kermondan sulton Ahmad ibn amir Muboriziddin Muhammad ibn Muzaffarning ikki o'g'li – sulton Muhammad va sulton Sulaymonshoh bilan, Sirjondan Abu Ishoq, sulton Aloiddin Maxdi ibn shoh Shujo', shoh Shujo'ning qizi tomonidan jiyan – sulton G'azonfar ibn shoh Mansur, sulton Ali ibn Muhammadning, shoh Boyazidning [hamda boshqa] Muzaffariylarning qatl qilinishi[1:152].

Maqxul bo'lgan shoh Shujo'ning o'g'illari – Shibli va Zaynalobidinning ko'chirilishi. Shoh Shujo' Shiblining ko'ziga nil tortdi, Zaynilobidinni esa shoh Mansur ko'r qildi. Ularni Samarqandga jo'natishdi[1:152].

Yuqoridagi ma'lumotga asosan Muzaffariylar sulolasining o'linga hukm etilgan o'n bir nafar vakilini ismlarini bilib olishimiz mumkun. Bundan tashqari Amir Temur tomonidan ushbu sulolani barcha vakillari qatl etilmaganligi, Shoh Shujo'ning ikki ko'zi ko'r qilingan farzandlarini Samarqandga yuborilganligi to'g'risidagi qimmatli ma'lumotlarga ham ega bo'lamiz.

Manbalarda Amir Temur tomonidan Ajam Iroqi hukmdorlaridan o'n etti nafari o'ldirilganligi to'g'risida ma'lumot keltirib o'tiladi. Ularning to'liq hammasini nomlari berilmagan Muzaffariylar sulolasi vakillaridan faqat Sulton Ahmad, Shoh Yaxyo, Sulton Abu Ishoqlarni, bulardan tashqari Iskandar al-Jallobiy, Arshivand al-Foriskuhi, Ibrohim al-Qumiy kabi Mozandaron va Xuroson xokim va podshohlari borligini bilishimiz mumkin[2:120].

Shu tariqa 1313 yildan hokimyat tepasida bo'lgan Muzaffariylar davlati Amir Temur tomonidan bosib olindi.

XULOSA

Amir Temur Eron va Yaqin Sharqqa o'tlanar ekan, birinchi navbatda "Hulagu taxti"da osoishtalik o'rnatishni asosiy maqsad qilib oladi. Bu siyosiy reja amalda Islom dinini himoya qilish, mazkur tarqoq mamlakatlardagi o'zaro qirg'inlar tufayli behuda qon to'kilishiga chek qo'yish, fuqaro osoyishtaligini ta'minlash shiori ostida o'tkaziladi.

Amir Temur parchalanib ketgan va o'zaro urushlar girdobida qolgan Erondagi kichik davlatlarni birlashtirish orqali:

Birinchiidan, mamlakat hududlarini kengaytirishni;

Ikkinchiidan, Movaraunnahrga janubdan yuz berishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni bartaraf etishni;

Uchinchiidan, bu erlarda adolat va osoyishtalik o'rnatish, hokimiyatni suiste'mol qilish hollari va o'zaro qirg'inlarga chek qo'yishni;

To'rtinchiidan, savdo yo'llari ustidan nazoratni qo'lga kiritish, savdo karvonlari xavfsizligini ta'minlash;

Beshinchiidan, islom qoidalarini mustahkamlash, yo'llarni qaroqchilardan tozalash va haj ziyoratiga boruvchilarni himoya qilish kabi maqsadlarga erishmoqchi bo'lgan.

Eron va uning atroflari bo'layotgan o'zaro urushlar, ichki nizolar, toju-taxt kurashlari Amir Temur tomonidan Eron istilosini tezlashtirdi va qiyinchiliksiz egallanishiga olib keldi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Фасих Аҳмад ибн Жалолиддин Муҳаммад ал-Ҳавофий. Мужмали фасихий. Фасих тўплами. Таржима, кириш, изоҳлар ва кўрсаткичлар Д.Юсупованики. Тошкент "Фан" 2018. 544 бет.

2. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари) / Араб тилидан тарж. ва изоҳларни, сўз боши У.Уватов тайёрлаган; Масъул муҳаррир А.Ўринбоев. К. I. – Т.: "Меҳнат" 1991. 328 бет.

3. Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут таворихи Муиний (Муиний тарихлари танланмаси)/ Муиниддин Натанзий; форс тилидан тарж., сўз боши ва изоҳлар муаллифи Ғ.Каримий; маъсул муҳаррир А.Ўринбоев. – Т.:O'zbekiston, 2011. 264 бет.

4. Низомиддин Шомий. Зафарнома /Форс тилидан ўгирувчи – Ю.Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир – А.Ўринбоев, изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ.Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О.Бўриевники), Ҳофизу Абруни «Зафарнома»га ёзган «Зайл»и(«Илова»)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларини тузувчи – О.Бўриев -Т.: Ўзбекистон, 1996; 528 б.

5. Хондамир Ғиёсиддин. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар / Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари – Жалил Ҳазратқулов, Исмоил Бекжонов, Изоҳлар муаллифлари – Ашраф Аҳмедов, Исмоил Бекжонов, – Т.: Ўзбекистон, 2013. – 1272 б

6. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари ва нашрга тайёрловчилар: Ашраф Аҳмад, Ҳайдарбек Бобобеков: масъул муҳаррир Б.Эшпўлатов. нашрлар ва матбачилар гуруҳи: И.Шоғуломов ва бошқалар// Т.: “Шарқ”, 1997 й. 384 бет.+ 16 илова.

7. Дадабоев Ҳамидулла. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати. Тошкент “Ёзувчи” 1996 й. 96 бет.

8. Ретвеладзе Э.В., Алимова. Д.А. История Узбекистана Эпоха Амира Темура и Темуридов. Ташкент Фан 2017 г. с 568.

9. Usmonov B. O‘zbekiston tarixi. Amir Temur va temuriylar davri siyosiy tarixi. O‘quv qo‘llanma. Farg‘ona. “Classik”, 2024. 464 bet

10. Амир Темур жаҳон тарихида. муаллифлар жамоаси: С.Саидқосимов (раҳбар), Г.Асанова, А.Аҳмедов, Б.Аҳмедов ва бошқ. Т.: Шарқ. 1996. 295 бет.

Абдуллаев Э. А.

Базовый докторант (PhD)

Ферганский государственный университет

elbekabdullayev87@gmail.com

ПОХОД АМИРА ТЕМУРА В ИРАН В 1393 ГОДУ

АННОТАЦИЯ

В статье на основе анализа исторических источников и литературы освещается поход Амира Темура в Иран в 1393 году против государства Музаффари.

Ключевые слова: Центральный Иран, государство Музаффари, трехлетний поход, пятилетний поход, шах Шуджа, султан Зайнулобидин, шах Мансур, Абу Исхак, султан Ахмад, Исфахан, Шираз, Фарс.

Abdullayev E. A.

Basic doctoral student (PhD)

Fergana state university

elbekabdullayev87@gmail.com

THE CAMPAIGN OF AMIR TEMUR TO IRAN IN 1393

ABSTRACT

Based on the analysis of historical sources and literature, the article covers the campaign of Amir Temur in Iran in 1393 against the state of Muzaffari.

Keywords: Central Iran, the state of Muzaffari, three-year campaign, five-year campaign, Shah Shuja, Sultan Zainulobidin, Shah Mansur, Abu Ishaq, Sultan Ahmad, Isfahan, Shiraz, Fars.